

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**IXTISOSLASHTIRILGAN FTIZIATRIYA VA PULMONOLOGIYA YORDAMI
KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Respublikada aholi salomatligini muhofaza qilish va sil infeksiyasiidan himoyalash, sil va o'pkaning nospetsifik kasalliklari tarqalishining oldini olish, barqaror sanitariya-epidemiologiya holatini saqlab turish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, ekologik omillar ta'sirida rivojlanadigan nafas organlari, ayniqsa surunkali obstruktiv o'pka kasalliklariga uchragan bemorlar sonining oshishi kuzatilmoxda, respirator patologiyaning kasallik rivojlangunga qadar erta skrininglovchi funksional tashxislash amalga oshirilmayapti.

Ftiziatriya va pulmonologiya xizmatlarining integratsiyalashuvi yetarli darajada emasligi respirator kasalliklarga zamonaviy tashxis qo'yish va ularni davolash usullarini amaliyatga samarali tatbiq etishga imkon bermayapti.

"Ftiziatriya" va "pulmonologiya" mutaxassislarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimi zamon talablariga javob bermaydi, natijada hududiy muassasalarning ftizioxirurg, ftiziourolog, ftizioortoped, ftiziooftalmolog, ftizioginekolog, ftiziopediatr, shuningdek pulmonolog kabi malakali mutaxassislar bilan ta'minlanishi yetarli darajada emasligi kuzatilmoxda.

Ftiziatriya muassasalari moddiy-texnik bazalarining yetarli darajada emasligi, tibbiy jihozlar va texnikalarning yetishmasligi sil kasali va o'pkaning nospetsifik kasalliklariga chalingan bemorlarga o'z vaqtida, to'liq va sifatlari tibbiy yordam ko'rsatishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ftiziatriya va pulmonologiya yordami ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek mamlakatda barqaror sanitariya-epidemiologiya holatini ta'minlash borasidagi chora-tadbirlari kuchaytirish hamda mazkur tizim muassasalarining resurs salohiyatini mustahkamlash maqsadida:

1. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligining sil va o'pkaning nospetsifik kasalliklari tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha asosiy vazifalari etib belgilansin:

 mintaqaviy epidemiologik holatni muntazam ravishda tahlil qilish va monitoringini olib borish, sil va uning dorilarga chidamli shakllari, o'pkaning nospetsifik kasalliklari tarqalishi tendensiyalarini prognoz qilish;

 sil va o'pkaning nospetsifik kasalliklarini keltirib chiqaradigan qo'zg'atuvchilarni laborator tashxislash usullarini sifat jihatidan yanada yaxshilash;

 innovatsion usullarni joriy qilish asosida sil va nospetsifik o'pka kasalliklarining oldini olish borasidagi kompleks profilaktika ishlarini amalga oshirish, silning latent shakllarini, silni yuqtirib olish xavfi yuqori bo'lgan shaxslarni, shuningdek silning dorilarga chidamli turiga chalingan bemorlar bilan muloqotda bo'lgan shaxslarni tashxislash va davolashni tashkillashtirish;

 sil va o'pkaning nospetsifik kasalliklarini profilaktika qilish, o'z vaqtida tashxislash va davolashga yo'naltirilgan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning muvofiqlashtirishini ta'minlash;

 birlamchi tibbiy-sanitariya yordami darajasida barchaga sifatlari tibbiyot xizmatlarini ta'minlagan holda silning tarqalishiga qarshi chora-tadbirlarning OIV/OITSni davolash, ona va bola salomatligini muhofaza qilish dasturlari bilan integratsiyasini tashkillashtirish.

2. Quyidagilar:

 2019 — 2021-yillarda sil va o'pkaning nospetsifik kasalliklari tarqalishiga qarshi kurashish kompleks chora-tadbirlari (keyingi o'rindarda — Kompleks chora-tadbirlari) **1-ilovaga** muvofiq;

 2020-2021-yillarda ftiziatriya muassasalari binolarini rekonstruksiya qilish tadbirlari dasturi **2-ilovaga** muvofiq;

 2020-2021-yillarda ftiziatriya muassasalarini zamonaviy tashxislash, davolash va reanimatsiya uskunalari bilan jihozlash chora-tadbirlari dasturi **3-ilovaga** muvofiq;

2020-2021-yillarda silga qarshi sanatoriylarni zamonaviy reabilitatsiya, tashxislash va laboratoriya uskunalarini bilan jihozlash chora-tadbirlari dasturi [4-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Sog‘liqni saqlash vazirligi va Tashqi ishlari vazirligi bilan birgalikda xorijiy davlatlar, xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlari (qarzlari)ni, grantlarini ushbu qarorda tasdiqlangan Kompleks chora-tadbirlari va dasturlari bajarilishi uchun jalb qilish bo‘yicha zarur choralarini ko‘rsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi hamda Iqtisodiyot va sanoat vazirligining 2019/2020 o‘quv yildan boshlab, Toshkent tibbiyot akademiyasida, keyinchalik boshqa tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida “Pulmonologiya” mutaxassisligi bo‘yicha magistratura va klinik ordinaturada kadrlarni tayyorlashni bosqichma-bosqich tashkillashtirish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Belgilab qo‘yilsinki, 2019/2020 o‘quv yildan boshlab “Ftiziatriya” va “Pulmonologiya” mutaxassisligi bo‘yicha magistratura va klinik ordinaturada kadrlarni tayyorlash faqat davlat grantlari asosida amalga oshiriladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi:

immunodiagnostikani o‘tkazish maqsadida 2019-yil 1-aprelga qadar sil kasalligini yuqtirib olish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslarning asoslangan kontingentini aniqlasin;

2019-yil 1-mayga qadar Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va uning hududiy markazlarining yangilangan tashkiliy-shtat tuzilmalarini “Sog‘liqni saqlash” tarmog‘i bo‘yicha ko‘zda tutilgan yillik budget mablag‘lari doirasida tasdiqlasin;

2019-yil 1-mayga qadar respublika, viloyat va tuman (shahar) miqyosida ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar hajmini, pulmonolog xonasini jihozlash standartlarini, mutaxassislarining funksional vazifalarini belgilagan holda pulmonologiya bo‘limlari faoliyatini tashkillashtirishni nazarda tutuvchi pulmonologiya yo‘nalishi bo‘yicha tibbiy yordam ko‘rsatish tartibini tasdiqlasin;

2019-yil 1-iyunga qadar Moliya vazirligi bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ushbu bandning [ikkinci xatboshida](#) ko‘rsatilgan shaxslarda aniqlangan latent silni tashxislash va davolash tadbirlarini tashkillashtirish, shuningdek ushbu tadbirlarni moliyalashtirish manbalarini aniqlash bo‘yicha takliflar kirlitsin;

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga uch oy muddatda sifatli tashxislash, silga qarshi dori va individual himoya vositalarini ishlab chiqarishni tashkillashtirish va rivojlanirish bo‘yicha takliflar kirlitsin;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda tibbiyot oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlari va yuklamalarini tanqidiy o‘rganish natijalarini asosida tibbiyot oliy ta’lim muassasalarining “Ftiziatriya” kafedralarini “Ftiziatriya va pulmonologiya” kafedralariga qayta ixtisoslashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion sog‘liqni saqlash milliy palatasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda 2019-yil 1-sentabrga qadar sil va o‘pkaning nospetsifik kasalliklari, shuningdek ftiziatriya muassasalarini moddiy-texnik jihozlashning zamonaviy klinik qo‘llanma va protokollar, tashxis va davolash sifatiga oid standartlarni ishlab chiqsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasining har yilgi Davlat budgeti parametrlarini shakllantirishda ftiziatriya muassasalarini immunodiagnostika va silga qarshi dori vositalari bilan ta’minalash uchun zarur mablag‘lar ajratilishini nazarda tutsin.

7. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.A. Abduhakimovga — ushbu qarorda belgilangan vazifalarning to‘liq bajarilishi bo‘yicha vazirlik va idoralar faoliyatini samarali muvofiqlashtirish hamda uning amalga oshirilishini muntazam ko‘rib chiqish;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari J.A. Qo‘chqorovga — ushbu qarorda belgilangan tadbirlarni to‘liq bajarish uchun zarur mablag‘larni o‘z vaqtida va to‘liq miqdorda ajratish;

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vaziri A.K. Shodmonovga — ushbu qarorda belgilangan barcha tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi, ftiziatriya muassasalari va silga qarshi sanatoriylari binolarining o‘z vaqtida foydalanishga topshirilishi hamda zamonaviy jihozlar bilan ta’milnishi yuzasidan shaxsiy javobgarligi ko‘rsatib o‘tilsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi aholi orasida sil va nospetsifik o‘pka kasalliklarining oldini olish, erta aniqlash, davolash masalalari bo‘yicha axborot-ma’rifat ishlarini muntazam ravishda amalga oshirsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘srimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi A.A. Abduvaxitov va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rribbosari A.A. Abduhakimov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2019-yil 13-fevral,
PQ-4191-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldaggi PQ-4191-son qaroriga
1-ILOVA

2019 — 2021-yillarda sil va o‘pkaning nospetsifik kasalliklari tarqalishiga qarshi kurashish

KOMPLEKS CHORA-TADBIRLARI

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddatları	Mablag'	Moliyalashtirish manbai	Ijrochilar
I. Sil va o‘pkaning nospetsifik kasalliklari tarqalishiga qarshi kurashish faoliyati samaradorligini oshirishni ta’milaydigan me’yoriy bazani takomillashtirish						
1.	O‘zbekiston Respublikasining “Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish: palliativ yordamni tashkil etish (ixtisoslashtirilgan muassasalarining tarkibidagi bo‘lmalarda yoki mustaqil tibbiyot muassasalarida (xospislarda) sil va o‘pkaning nospetsifik kasalliklariga chalingan bemorlarga kasallikning terminal (so‘nggi)	Qonun	2019-yil 1- oktabrgacha	—	—	Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov) Adliya vazirligi (R. Davletov) Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (Sh. Kudbiyev) manfaatdor vazir va idoralar

	bosqichida vrach boshchiligidagi ko‘rsatiladigan yordam); sil va o‘pkaning nospetsifik kasalliliklariga chalingan bemorlarni, shuningdek ftiziatriya va pulmonologiya sohasida yordam beruvchi mutaxassislarni ijtimoiy himoya qilish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tadbirlarini kengaytirish.				
2.	Diagnostikumla♦, diagnostika uskunalarini, shuningdek GDF (Global drug facility) sertifikati bilan tasdiqlangan silga qarshi dori vositalarini chetdan olib kirishda va ro‘yxatga olishda soddalashtirilgan tartibni o‘rnatish.	Me’yoriy-huquqiy hujjat	2019-yil 1-iyulgacha	—	Sog‘lijni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Farmatsevtika agentligi (A. Abdullayev) DBQ (M. Azimov) Adliya vazirligi (R. Davletov), manfaatdor vazirligini va idoralar
3.	Ftiziatriya va pulmonologiya xizmatlarining integratsiyasiga, vertikal boshqaruva tiziminining mustahkamlanishiga va yuqori malakali ixtisoslashtirilgan yordam bilan ta’minalashga yo‘naltirilgan Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining, hududiy ftiziatriya va pulmonologiya markazlarining yangilangan tuzilmasini, nizomlar, shtat jadvallarini va jihozlanish normativlarini tasdiqlash.	Sog‘lijni saqlash vazirining buyrug‘i	2019-yil 1-maygacha	—	Ajratiladigan budjet mablag‘lari doirasida Sog‘lijni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Milliy palata (R. Izamov)
4.	Sil kasalligining oldini olishga yo‘naltirilgan eng samarali klinik amaliyotlarni ishlab chiqish va tatbiq qilish.	Sog‘lijni saqlash vazirining buyrug‘i	2019-yil 1-aprelgacha	—	Sog‘lijni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Milliy palata (R. Izamov)

5.	Quyidagilarni tartibga soluvchi normativ hujjatni ishlab chiqish va tasdiqlash: ixtisoslashtirilgan pulmonologiya bo‘limlari, pulmonologiya xonalari (kabinetlari), shuningdek ularni jihozlash me’yorlari (normativlari); aholiga ixtisoslashtirilgan pulmonologik yordam ko‘rsatish tartibi; pulmonologiya xizmati muassasalari tomonidan hisob va hisobot hujjatlarini taqdim etish tartibi.	Sog‘lijni saqlash vazirining buyrug‘i	2019-yil 1-aprelgacha	—	—	Sog‘lijni saqlash vazirligi (A. Shodmonov)
6.	Mehnat migrantlari orasida silga qarshi kurash bo‘yicha davlatlararo, idoralararo va sohalararo o‘zaro hamkorlik mexanizmini ishlab chiqish.	Qo‘shma qaror	2019-yil 1-iyulgacha	—	—	Sog‘lijni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (Sh. Kudbiyev), IV (P. Bobojonov), TIV (A. Kamilo “Mahalla” jamg‘armasi (Sh. Javlonov) manfaatdor vazirligi va idoralar
7.	Toshkent shahar 1-sон shahar sil kasalligi klinik shifoxonasida “davolangan holat”g♦ qarab moliyalashtirishning yangi modelini ishlab chiqish va tatbiq qilish.	Sog‘lijni saqlash vazirining buyrug‘i	2020-yil 1-yanvargacha	—	—	Sog‘lijni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Toshkent shahar hokimligi (J. Ortioxo ‘jayev)
II. Aholi o‘rtasida sil va nospetsifik o‘pka kasalliklari tarqalishining oldini olish bo‘yicha samarali dasturlarni ishlab chiqish va tatbiq etish						
8.	Aholining, jumladan himoyaga muhtoj qatlamlari o‘rtasida sil va o‘pkaning nospetsifik kasalliklari to‘g‘risida sanitar profilaktikasi tadbirdari bo‘yicha xabardorligini oshirish, sog‘lom turmush tarzini	Tashkiliy-amaliy tadbirdar	2019 — 2021-yillar	100,0 ming. AQSh doll.	USAID tashkilotining sil kasalligini nazorat qilish dasturi doirasida	Sog‘lijni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), MTRK (A. Xadjayev), Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligi (K. Allamjonov)

	targ‘ib qilish, shuningdek ijtimoiy qo‘llab-quvatlash va himoyalash choralarini ko‘rish.					“Mahalla” jamg‘armasi (Sh. Javlonov)
9.	Aholining himoyaga muhtoj qatlamlari orasida, shu toifadagi fuqarolarni tekshirishga, silni diagnostika qilish va davolashga jalb qilish maqsadida sil kasalligining oldini olish dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish bo‘yicha idoralararo hamkorlikni tashkil etish.	Tashkiliy-amaliy tadbirlar	2019-yil 2019-yil	100,0 ming. AQSh doll. 300 mln so‘m	USAID tashkilotining sil kasalligini nazorat qilish dasturi doirasida “Intilish” ATMning grant mablag‘lari	Sog‘lijni saqlashtiruvchi vazirligi (A. Shodmonov), “Mahalla” jamg‘armasi (Sh. Javlonov) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi

III. Silni sifatli va samarali tashxislashni ta’minlash hamda sil bilan kasallanganlarni davolash samaradorligini oshirish

10.	Dorilarga turg‘un sil bilan og‘rigan bemorlarda davolanishga moyillikni va ijtimoiy-psixologik adaptatsiyani ta’minlash uchun silga qarshi kurash muassasalarining shtat jadvaliga ruhshunos mutaxassisni kiritish orqali yuqori malakali psixologik yordamidan foydalanishni kengaytirish.	Tashkiliy-amaliy tadbirlar	2019-yil 1-avgustdan boshlab 2019-yil	300 mln so‘m	Ajratiladigan budget mablag‘lari va shtat birliklari doirasida “Intilish” RATMning grant mablag‘lari	Sog‘lijni saqlashtiruvchi vazirligi (A. Shodmonov), Bandlik va mehnat munosabatlarini vazirligi (Sh. Kudbiyev), manfaatdor vazirlari va idoralar
11.	Latent sil bemorlarni, dorilarga turg‘un sil bemorlar bilan muloqotdagi shaxslarni tashxislash va davolash, hamda dorilarga turg‘un silni videonazorat ostida davolash bo‘yicha standart amaliy jarayonlarni ishlab chiqish va tatbiq qilish.	Tashkiliy-amaliy tadbirlar	2019-yil	100,0 ming AQSh doll.	USAID tashkilotining sil kasalligini nazorat qilish dasturi doirasida	Sog‘lijni saqlashtiruvchi vazirligi (A. Shodmonov), Milliy palata (R. Izamov)
12.	Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami davolash-profilaktika muassasalarida latent silni tashxislash va preventiv davolashga yondashuvlarni aniqlash.	Tashkiliy-amaliy tadbirlar	2019-yil	250,0 ming AQSh doll.	OITS, sil va bezgakka qarshi kurash (sil komponenti) Global jamg‘armasi grant mablag‘lari	Sog‘lijni saqlashtiruvchi vazirligi (A. Shodmonov), Milliy palata (R. Izamov)
13.	Dorilarga turg‘un silni davolashning innovatsion sxemalarini ftiziatriya	Tashkiliy-amaliy tadbirlar	2019-yil 2020-yil	1,5 mln AQSh doll.	“Chegarasiz shifokorlar”	Sog‘lijni saqlashtiruvchi vazirligi (A. Shodmonov),

	muassasalariga tatbiq qilish.		2021-yil	1,7 mln AQSh doll. 2,0 mln AQSh doll.	xalqaro tashkiloti mablag‘lari	Milliy palata (R. Izamov)
14.	Nodavlat notijorat tashkilotlarini silga qarshi kurash tadbirlarini amalga oshirishga jalb qilish, shu bilan birga sil kasalligini yuqtirib olish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslarga (bolalar, muloqotdagi shaxslar, somatik profildagi bemorlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar va boshqalar) ijtimoiy-ruhiy ko‘mak berish.	Tashkiliy-amaliy tadbirlar	2019-yil 1-iyulgacha	370 mln so‘m	“Intilish” RATMning grant mablag‘lari	Sog‘lijni saqlashtiruv vazirligi (A. Shodmonov), Adliya vazirligi (R. Davletov), O‘zbekiston NM assotsiatsiyasi (I. Nasriyev)
15.	Sil immunodiagnostikasining, shu jumladan tuberkulinodiagnostika, diaskin test, kvantiferon testning zamonaviy usullarini tatbiq etish.	Tashkiliy-amaliy tadbirlar	2019-yil 2020-yil	14 mldr so‘m 14 mldr so‘m	Davlat budgeti parametrlari doirasida	Sog‘lijni saqlashtiruv vazirligi (A. Shodmonov)
16.	GDF (Global drug facility) sertifikati bilan tasdiqlangan silga qarshi dori vositalarini markazlashgan asosda xarid qilish.	Tashkiliy-amaliy tadbirlar	2020-yil 2021-yil 2019-yil 2020-yil 2021 yil	1 881,3 ming AQSh doll. 2 244,5 ming AQSh doll. 9 071,7 ming AQSh doll. 4 954,7 ming AQSh doll. 1 421,0 ming AQSh doll.	“Sog‘lijni saqlash” sohasi bo‘yicha har yili ajratiladigan budget mablag‘lari doirasida OITS, sil va bezgakka qarshi kurash (sil komponenti) Global jamg‘armasi grant mablag‘lari	Sog‘lijni saqlashtiruv vazirligi (A. Shodmonov), Moliya vazirligi (A. Xaydarov) Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (S. Umurzakov) manfaatdor vazirligi va idoralar
17.	Silni davolashning quyidagilarni bosqichma-bosqich amalga oshirish nazarda tutuvchi samarali	Tashkiliy-amaliy tadbirlar	2019-yil	132,3 ming	USAID va JSST tashkilotlarining	Sog‘lijni saqlashtiruv vazirligi (A. Shodmonov), Innovatsiya vazirligi

	usullarini ishlab chiqish va tatbiq qilish: dorilarga sezgirlik testi natijalariga va silga qarshi muassasalarda farmakonazorat tizimi natijalariga asoslangan sil kasallarni qisqartirilgan davolash sxemalarini tatbiq qilish; ijtimoiy-ruhiy qo'llab-quvvatlash va videonazorat ostida dorilarni qabul qilgan holda sil bemorlarida ambulator davolashni tatbiq qilish; sil kasallari uchun "birinchi kundan" ambulator davolash yondashuvini kengaytirish; diagnostika va davolashning yuqori texnologik usullarini (endoxirurgik amaliyotlar, kislorodoterapiya, nafasni nebulayzer terapiya va noinvaziv o'pka ventilatsiyasi yordamida quvvatlash) tatbiq etish.		2019-yil 2019-yil 2019-yil	AQSh doll. 20,0 ming AQSh doll. 20,0 ming AQSh doll. 1,1 mln yevro	"Challenge TB" dasturi doirasida USAID va "Chegarasiz shifokorlar" xalqaro tashkiloti gumanitar yordami "KfW" bankining "Tuberkulez V" va "Tuberkulez VI" dasturlari mablag'lari	(I. Abduraxmonov) Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (S. Umurzakov) manfaatdor vazirligi va idoralar
18.	Sil va o'pkaning nospetsifik kasalliklari bo'yicha sog'lijni saqlashning yagona elektron multimodul tizimini yaratishning texnik topshirig'ini ishlab chiqish va tasdiqlash.	Texnik topshiriq	2019-yil 1-maygacha 2020-yil 1-yanvargacha		OITS, sil va bezgakka qarshi kurash (sil komponenti) Global jamg'armasi grant mablag'lari USAID tashkilotining sil kasalligini nazorat qilish dasturi doirasida	Sog'lijni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Axborot kommunikatsiya vazirligi (Sh. Sadikov), Innovatsiya vazirligi (I. Abduraxmonov), Milliy palata (R. Izamov), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (S. Umurzakov)
19.	Sil va o'pkaning nospetsifik kasalliklari bo'yicha sog'lijni saqlashning yagona elektron multimodul	Tashkiliy-amaliy tadbirlar	2019–2020-yillar	240,0 ming AQSh doll.	OITS, sil va bezgakka qarshi kurashish (sil komponenti) Global	Sog'lijni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Axborot

	tizimini yaratish hamda Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining hududiy darajada telemeditsinani tatbiq etish tajribasini kengaytirish.			140,0 ming AQSh doll.	jamg‘armasi grant mablag‘lari USAID tashkilotining sil kasalligini nazorat qilish dasturi doirasida	kommunikatsiya vazirligi (Sh. Sadikov), Innovatsiya vazirligi (I. Abduraxmonov) Milliy palata (R. Izamov), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (S. Umurzakov)
--	---	--	--	-----------------------	---	---

IV. Ftiziatriya muassasalarining moddiy-texnik bazasini va sanitariya-texnik holatini yaxshilash

20.	Hududiy ftiziatriya va pulmonologiya markazlarida palliativ davolash bo‘limlarini, pulmonologik va diagnostik profildagi o‘rnlarni mavjud o‘rin fondlarini maqbullashtirish hisobidan tashkillashtirish.	Tashkiliy-amaliy tadbirlar	2019-yil 1-maygacha	—	Ajratiladigan budjet mablag‘lari doirasida	Sog‘lijni saqlash vazirligi (A. Shodmonov)
21.	Milliy referens laboratoriyasini va silni gen-fenotipik diagnostika qilish va dorilarga turg‘unligini aniqlashga qaratilgan oliy toifadagi hududiy bakteriologik laboratoriya tarmoqlarini modernizatsiya qilishni nazarda tutadigan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish.	Chora-tadbirlar kompleksi	2019-2020-yillar 2019-yil	933,5 ming AQSh doll. 391,2 ming AQSh doll.	OITS, sil va bezgakka qarshi kurashish (sil komponenti) Global jamg‘armasi grant mablag‘lari USAID tashkilotining sil kasalligini nazorat qilish dasturi doirasida	Sog‘lijni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (S. Umurzakov) Innovatsiya vazirligi (I. Abduraxmonov) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengas viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
22.	Mehnat va ruhiyijitmoiy adaptatsiya imkoniyatlarini kengaytirgan holda sil kasalligi sanatoriylarini sil bilan kasallangan katta yoshdagi bemorlar uchun tibbiy-reabilitatsiya markazlariga aylantirish.	Sog‘lijni saqlash vazirining buyrug‘i	2020-yil 1-yanvargacha	—	Ajratiladigan budjet mablag‘lari doirasida	Sog‘lijni saqlash vazirligi (A. Shodmonov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengas viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

23.	Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida tibbiyot kislorodini ishlab chiqarish uchun kichik maydonchalar (zavodlar) tashkil qilish.	Tashkiliy-amaliy tadbirlar	2020-yil 1-yanvargacha	80,0 ming yevro	“KfW” bankining “Tuberkulez VI” dasturi mablag‘lari	Sog‘liqni saqlashtirish vazirligi (A. Shodmonov), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (S. Umurzakov)
24.	Birlamchi tibbiyot-sanitariya yordami va ftiziatriya muassasalarida infektion nazoratni takomillashtirish, shu jumladan: ekranlashtirilgan ultrabinafsha lampalar o‘rnatish; shifoxona ichki infeksiyasi tarqalish xatarlarini kamaytirishga qaratilgan infektion nazorat choralarini monitoring qilish; hududiy ftiziatriya va pulmonologiya markazlarining shifoxona markaziy sterilizatsiya bo‘limlari va kir yuvish xonalarining jihozlarini modernizatsiya qilish.	Tashkiliy-amaliy tadbirlar, zarur hollarda normativ-huquqiy hujjat	2019-yil	668,7 ming yevro	“KfW” bankining “Tuberkulez V” dasturi mablag‘lari	Sog‘liqni saqlashtirish vazirligi (A. Shodmonov), Innovatsiya vazirligi (I. Abduraxmonov), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (S. Umurzakov) manfaatdor vazirligiga va idoralar
V. Ftiziatriya muassasalarida kadrlar salohiyatini kuchaytirish, sil va nospetsifik o‘pka kasalliklari bilan kurashish sohasida ilmiy izlanishlarni intensifikasiya qilish, ilg‘or ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish						
25.	Dorilarga turg‘un sil shaklining oldini olishga, o‘z vaqtida tashxis qo‘yish va davolashga yo‘naltirilgan fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlar olib borish. Surunkali obstruktiv o‘pka kasalliklari tarqaganligini va ushbu patologiyaning tibbiy-ijtimoiy yukini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish.	Tanlov natijalari bo‘yicha ilmiy grantlar	Har yili	Hisob-kitoblarga asosan	Davlat ilmiy-texnikaviy dasturlarini amalga oshirishga ajratiladigan budjet mablag‘lari	Sog‘liqni saqlashtirish vazirligi (A. Shodmonov), Innovatsiya vazirligi (I. Abduraxmonov)
26.	Maqsadli ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkillashtirish, sil va nospetsifik o‘pka	Tashkiliy-amaliy tadbirlar	Har yili 2019 — 2021	200 ming AQSh doll.	“KfW” bank va JSST grant mablag‘lari	Sog‘liqni saqlashtirish vazirligi (A. Shodmonov),

	kasalliklarining oldini olish, tashxis qo'yish va davolashda xorijiy ilg'or ilmiy ishlanmalar va yuqori samarali vositalar amaliyotini tatbiq qilish tajribalarini o'rganish va kelgusida ularning natijalarini amaliyotga tatbiq qilish.	yillar davomida	Hisob-kitoblarga asosan	Ajratiladigan budjet mablag'lari doirasida	Innovatsiya vazirligi (I. Abduraxmonov)
--	---	-----------------	-------------------------	--	--

Chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish bo'yicha umumiy xaratjatlar:

179 mlrd so'm i 42,4 mln AQSh doll.

shundan:

	— mlrd so'm	mln AQSh doll.
O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari	— 178,0	— 4,1
xalqaro moliya institutlari mablag'lari boshqa mablag'lar	— — 0,97	— 38,3

Izoh:

1. Tadbirlarni amalga oshirish shakli o'zgarishi, ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy va boshqa hujatlar esa, huquqiy munosabatlarni tartibga solish predmeti va sohasidan kelib chiqqan holda birlashtirilishi mumkin;

2. Ikki va undan ortiq bandlar birlashtirilganda ushbu bandlar uchun belgilangan eng kech muddat ijro muddati etib belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldag'i PQ-4191-soni qaroriga
2-ILOVA

2020-2021-yillarda ftiziatriya muassasalari binolarini rekonstruksiya qilish tadbirlari

DASTURI

T/r	T/r	Muassasalar nomi	Quvvati		Qiymati (mln so'm)	Shu jumladan, yillar bo'yicha	
			o'rinni	2 990		2020-yil	2021-yil
		Respublika bo'yicha jami	qatnov	225	150 000,0	67 000,0	83 000,0
Andijon viloyati							
1.	1.	Izboskan tumanidagi viloyat sil kasalxonasi (90 o'rinni davolash bo'limining qurilishi)	o'rinni	90	9000,0	4500,0	4500,0
			qatnov				
2.	1.	Kitob tumanidagi Ibn Sino nomidagi viloyat silga qarshi sanatoriysi (100 o'rinni)	o'rinni	100	9 000,0	4500,0	4500,0
			qatnov				
Qashqadaryo viloyati							
3.	1.	Ko'kchiyev tumanidagi qarshi sanatoriysi (100 o'rinni)	o'rinni	250	16 000,0	7 500,0	8 500,0
			qatnov	0			

		<i>davolash bo‘limi va boshqa obyektlarni rekonstruksiya qilish)</i>					
3.	2.	Kitob tumanidagi Palandara viloyat bolalar silga qarshi sanatoriysi (<i>150 o‘rinli davolash bo‘limi va boshqa obyektlarni rekonstruksiya qilish</i>)	o‘rin qatnov	150 	7 000,0	3000,0	4000,0
Namangan viloyati							
		Jami:	o‘rin qatnov	140 50	5 000,0	5000,0	-
4.	1.	Mingbulloq tumanidagi 2-son viloyat silga qarshi dispanseri (<i>140 o‘rinli davolash bo‘limi, dispanser bo‘limi va boshqa obyektlarni rekonstruksiya qilish</i>)	o‘rin qatnov	140 50	5 000,0	5000,0	-
Samarqand viloyati							
		Jami:	o‘rin qatnov	690 0	28 000,0	11 000,0	17 000,0
5.	1.	Samarqand tumani Mironko‘l QFYdagi viloyat silga qarshi dispanseri (<i>490 o‘rinli davolash bo‘limi va boshqa obyektlarni rekonstruksiya qilish</i>)	o‘rin qatnov	490 	20 000,0	7 000,0	13 000,0
6.	2.	Samarqand tumani Ohalik QFYdagi viloyat ixtisoslashgan bolalar sil sanatoriysi (<i>200 o‘rinli davolash bo‘limi va boshqa obyektlarning qurilishi</i>)	o‘rin qatnov	200 	8 000,0	4 000,0	4 000,0
Surxondaryo viloyati							
		Jami:	o‘rin qatnov	45 0	7 000,0		7 000,0
7.	1.	Viloyat silga qarshi dispanseri (<i>45 o‘rinli davolash bo‘limi va boshqa obyektlarni rekonstruksiya qilish</i>)	o‘rin qatnov	45 	3000,0		3000,0
8.	2.	Viloyat 1-son sil kasalxonasi (<i>boshqa obyektlarning qurilishi</i>)	obyekt		2 500,0		2500,0
9	3	Denov tumanlararo silga qarshi dispanseri (<i>boshqa obyektlarning qurilishi</i>)	obyekt		1 500,0		1500,0
Toshkent viloyati							
		Jami:	o‘rin qatnov	370 75	21 000,0	9 000,0	12 000,0
10.	1.	Viloyat silga qarshi dispanseri (<i>davolash korpuslari, laboratoriylar, dorixonalar, dispanser bo‘limi, oshxonani rekonstruksiya qilish, atrofini o‘rash va hududni obodonlashtirish</i>)	o‘rin qatnov	220 75	17 000,0	5 000,0	12 000,0
11.	2.	Viloyat bolalar sil sanatoriysi (<i>davolash korpuslari, fitzioterapiya bo‘limi, oshxona, oziq-ovqat ombori, dezinfekcion kamerali blok, kirxona, sport zali va yopiq suv havzasini rekonstruksiya qilish, atrofini o‘rash va hududni obodonlashtirish</i>)	o‘rin qatnov	150 	4 000,0	4 000,0	
Farg‘ona viloyati							
		Jami:	o‘rin	200	8 000,0		0,0

			qatnov	0		8 000,0	
12.	1.	Qo‘qon shahridagi viloyat bolalar silga qarshi kasalxona-sanator kompleksi (200 o‘rinli davolash bo‘limi va boshqa obyektlarning qurilishi)	o‘rin	200	8 000,0	8 000,0	
			qatnov				
Xorazm viloyati							
		Jami:	o‘rin	320	14 000,0	5 000,0	9 000,0
			qatnov	100			
13.	1.	Viloyat silga qarshi dispanser (davolash bo‘limi, tashxis bo‘limi, ma‘muriy-xo‘jalik qismini rekonstruksiya qilish)	o‘rin	320	14 000,0	5 000,0	9 000,0
			qatnov	100			
Toshkent shahar							
		Jami:	o‘rin	135	15 000,0	5 000,0	10 000,0
			qatnov	0			
14.	1.	Uchtepa tumanidagi shahar bolalar sil sanatoriysi (135 o‘rinli davolash bo‘limi va boshqa obyektlarni rekonstruksiya qilish)	o‘rin	135	15 000,0	5 000,0	10 000,0
			qatnov				
Respublika miqyosidagi muassasalar							
		Jami:	o‘rin	750	27 000,0	12 000,0	15 000,0
			qatnov	0			
15.	1.	Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazi (Markaziy Osiyo mintaqaviy trening markazi bo‘lgan respublika milliy referens laboratoriyasi)	obyekt	1	12 000,0	7 000,0	5 000,0
16.	2.	“Parda Tursun” sil sanatoriysi (davolash korpuslari, fizioterapiya bo‘limi, oshxona, oziq-ovqat ombori, , atrofini o‘rash va hududini obodonlashtirish)	o‘rin	300	7 000,0	2 000,0	5 000,0
			qatnov				
17.	3.	“Paxtaliko‘l” sil sanatoriysi (davolash korpuslari, fizioterapiya bo‘limi, oshxona, oziq-ovqat ombori, , atrofini o‘rash va hududini obodonlashtirish)	o‘rin	450	8 000,0	3 000,0	5 000,0
			qatnov				

Izoh

1. Rekonstruksiya ishlarini o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish davlat dasturlari doirasida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

2. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va tender savdolari natijalariga ko‘ra ishlar qiymatiga tuzatishlar kiritilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldagi PQ-4191-son qaroriga
3-ILOVA

2020-2021-yillarda ftiziatriya muassasalarini zamonaviy tashxislash, davolash va reanimatsiya uskunalarini bilan jihozlash chora-tadbirlar

DASTURI

T/r			

	Tibbiy asbob- uskunalarining nomi	Respublika bo‘yicha jami	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Andijon viloyati	Buxoro viloyati	Jizzax viloyati	Qashqadaryo viloyati
--	--	---------------------------------	--------------------------------------	-------------------------	------------------------	------------------------	-----------------------------

I.

1.	Magnit-rezonansli tomograf	1/760	—	—	—	—	—
2.	Raqamli o‘zgartirishli rentgen uskunasi	13/2860	1/220	1/220	1/220	1/220	1/220
3.	Mobil flyuorografiya tizimi	20/3140	1/157	2/314	1/157	1/157	2/314
4.	Videotorakoskop	5/585	—	—	—	—	—
5.	Fibrooptik bronxoskop, yorug‘li manba bilan	16/800	1/50	1/50	1/50	1/50	1/50
6.	Universal ultratovush uskunasi	15/450	1/30	1/30	1/30	1/30	1/30
7.	Yarimavtomatlashgan biokimyo analizatori, reagentlar to‘plami hamda kuchlanish stabilizatori bilan	17/90,1	1/5,3	1/5,3	1/5,3	1/5,3	1/5,3
8.	6 kanalli EKG	14/14	1/1	1/1	1/1	1/1	1/1
9.	“MIR Spirolab” spirometri	16/60,8	1/3,8	1/3,8	1/3,8	1/3,8	1/3,8
10.	Audiometr	16/83,2	1/5,2	1/5,2	1/5,2	1/5,2	1/5,2
11	To‘g‘ri oftalmoskop	1/0,6	—	—	—	—	—
12.	Ko‘zguli oftalmoskop	1/0,3	—	—	—	—	—
13.	Yoriqli statsionar lampa, uskuna jihozlari, ehtiyot lampalari va ko‘tariladigan stoli bilan	1/4,4	—	—	—	—	—
14.	“To‘lqin siljishli elastografiya” funksiyasi bilan ekspert darajali statsionar ultratovush uskunasi	1/101,2	—	—	—	—	—
14.	Uretrotsistoskop	1/4,7	—	—	—	—	—
16.	Kolposkop	1/5,95	—	—	—	—	—
17.	Polisomnografiya tizimli portativ to‘plam	1/25	—	—	—	—	—

18.	Polisomnografik registrator simsiz moduli	1/15	—	—	—	—	—
19.	DNK sekvenatori	1/150	—	—	—	—	—

III

20.	Narkoz asbob-uskunaları	16/416	1/26	1/26	1/26	1/26	1/26
21.	Ko‘p funksiyali operatsiya stoli	16/336	1/21	1/21	1/21	1/21	1/21
22.	Soyasiz ko‘chma lampa	16/92,8	1/5,8	1/5,8	1/5,8	1/5,8	1/5,8
23.	Jarrohlik lampa	16/179,2	1/11,2	1/11,2	1/11,2	1/11,2	1/11,2
24.	Elektrokoagulyator to‘plami bilan	16/160	1/10	1/10	1/10	1/10	1/10
25.	O‘pkaning sun’iy nafasini ta’minlaydigan asbob-uskuna	16/344	1/21,5	1/21,5	1/21,5	1/21,5	1/21,5
26.	Kompressorli ingalyator (nebulayzer)	155/93	10/6	10/6	10/6	10/6	10/6
27.	Kislород konsentratori	60/78	4/5,2	4/5,2	4/5,2	4/5,2	4/5,2
28.	CPAP tizimda nafas olishni ta’minlab turadigan noinvazid asbob-uskunalar	17/42,5	1/2,5	1/2,5	1/2,5	1/2,5	1/2,5
29.	BiPAP tizimda nafas olishni ta’minlab turadigan noinvazid asbob-uskunalar	17/59,5	1/3,5	1/3,5	1/3,5	1/3,5	1/3,5
30.	Nafas olishni ta’minalashda qo‘llaniladigan yuz niqoblarning to‘plami (18 dona)	17/76,5	1/4,5	1/4,5	1/4,5	1/4,5	1/4,5
31.	Dizelli, 63 kVA kam bo‘limgan, 3-fazali elektr toki generatori	16/160	1/10	1/10	1/10	1/10	1/10
32.	Devoriy ekranli bakteriotsid nur uskunaları	160/11,2	10/0,7	10/0,7	10/0,7	10/0,7	10/0,7
33.	Biologik xavfsizlik bokslari	15/15	1/1	1/1	1/1	1/1	1/1

III. I

34.	Karavot qoshidagi monitor	80/384	5/24	5/24	5/24	5/24	5/24
35.	Portativ pulsoksimetri	80/4	5/0,25	5/0,25	5/0,25	5/0,25	5/0,25

36.	Statsionar puloksimetr	32/20,32	2/1,27	2/1,27	2/1,27	2/1,27	2/1,27
37.	Defibrillyator	16/96	1/6	1/6	1/6	1/6	1/6
	Jami:	11718,27	632,72	789,72	632,72	632,72	789,72

Izoh:

Ushbu ilovada keltirilgan diagnostika, davolash va reanimatsiya asbob-uskunalarini oluvchilar:

1. Nukus ftiziatriya va pulmonologiya respublika shifoxonasi;

2. Viloyatlar ftiziatriya va pulmonologiya markazlari;

3. 1-son shahar sil kasalliklari klinik shifoxonasi;

4. Toshkent shahar bolalar sil kasalligi shifoxonasi (1 donadan ultratovush universal uskunasi, yarimavtomat biokimyo analizatori reagentlar to‘plami bilan, shuningdek kuchlanish stabilizatori)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldagi PQ-4191-sod qaroriga
4-ILOVA

2020–2021-yillarda silga qarshi sanatoriylarni zamonaviy reabilitatsiya, tashxislash va laboratoriya uskunalari bilan jihozlash chora-tadbirlari

DASTURI

T/r	Tibbiy asbob- uskunalarining nomi	Respublika bo‘yicha jami	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Andijon viloyati	Buxoro viloyati	Jizzax viloyati	Qashqadaryo viloyati	Ni
1.	Ultrabinafsha nurlantirish apparati	24/50,6	2/4,6	2/4,6	1/2,3	1/2,3	2/4,6	1
2.	Polyus magnitterapiya apparati	22/39,6	1/1,8	2/3,6	1/1,8	1/1,8	2/3,6	1
3.	Darsonvalizatsiya apparati	24/14,4	1/0,6	2/1,2	1/0,6	1/0,6	2/1,2	1
4.	Ultratovush ingalyatori	32/80	2/5	3/7,5	1/2,5	1/2,5	3/7,5	1
5.	Fizioterapevtik galvanizator elektroforez apparati	23/11,5	1/0,5	2/1	1/0,5	1/0,5	2/1	1
6.	Chiroqli vanna	16/6,4	1/0,4	1/0,4	1/0,4	1/0,4	1/0,4	1
7.	“Sollyuks” davolash lampasi	16/9,6	1/0,6	1/0,6	1/0,6	1/0,6	1/0,6	1

8.	Elektroyuqu apparati	2/5	—	—	—	—	—
9.	Yorig‘li lampa	6/60	—	1/10	—	—	1/10
10.	Veloergometr	9/22,5	½,5	½,5	—	—	½,5
11.	Ko‘z bosimi tonometri	1/0,6	—	—	—	—	—
12.	Raqamga o‘tkazuvchi rentgen apparati	2/400	—	—	—	—	—
13.	Perimetriya to‘plami	1/1,5	—	—	—	—	—
14.	Ko‘z tubini tekshirish asboblari	1/4	—	—	—	—	—
15.	Mikrojarrohlik to‘plami	1/3,2	—	—	—	—	—
16.	Sentrifuga	10/15	1/1,5	1/1,5	—	—	2/3
17.	Fotokolorimetr	9/18	1/2	1/2	—	—	2/2
18.	Termostat	9/23,4	1/2,6	1/2,6	—	—	2/5,2
19.	Binokulyar mikroskop	8/12,8	1/1,6	1/1,6	—	—	1/1,6
20.	Hajmi boshqariluvchi 1-kanalli dozator	8/1,6	1/0,2	1/0,2	—	—	1/0,2
21.	Yarimavtomat biokimyo analizatori	2/11,0	—	—	—	—	—
22.	Dezinfeksiya qilish kamerasi	2/43	—	—	—	—	—
23.	Bug‘li sterilizator	5/57,5	1/11,5	1/11,5	—	—	—
24.	Akvadistilyator	3/7,2	1/2,4	—	—	—	—
Jami:		898,4	37,8	50,8	8,7	8,7	43,4

Izoh:

Ushbu ilovada keltirilgan reabilitatsiya, diagnostika va laboratoriya asbob-uskunalarini oluvchilar:
 1. Respublika bolalar sil sanatoriysi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi);

2. Andijon viloyat sil sanatoriysi (chiroqli vanna, “Sollyuks” davolash lampasi, veloergometr);
3. Andijon viloyat bolalar sil sanatoriysi (qolgan asbob-uskunalar);
4. Buxoro viloyat bolalar sil sanatoriysi;
5. Jizzax viloyat bolalar sil sanatoriysi;
6. Qashqadaryo viloyat sil sanatoriysi (chiroqli vanna, “Sollyuks” davolash lampasi, veloergometr);
7. Qashqadaryo viloyat bolalar sil sanatoriysi (qolgan asbob-uskunalar);
8. Navoiy viloyat bolalar sil sanatoriysi;
9. Namangan viloyat bolalar sil sanatoriysi;
10. Samarqand viloyat ixtisoslashtirilgan bolalar sil sanatoriysi;
11. Surxondaryo viloyat bolalar sil sanatoriysi;
12. Toshkent viloyat bolalar sil sanatoriysi;
13. Farg‘ona viloyat bolalar sil sanatoriysi;
14. Xorazm viloyat bolalar sil sanatoriysi;
15. Toshkent shahar bolalar sil sanatoriysi.

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.02.2019-y., 07/19/4191/2615-son)